



O'QUV JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA TA'LIM TURLARINING ROLI

Baxranova Muhayyo Raxmat qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning turli turlari va shakllari tahlil qilinadi. Ta'lim tizimining rivojlanishi, uning zamonaviy talablar asosida shakllanishi va innovatsion yondashuvlar maqolaning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi*

Kalit so'zlar: *ta'lim, illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan, dogmatik o'qitish, dastur, dasturiy ta'lim.*

Abstract. *This article analyzes various types and forms of effective organization of the educational process. The development of the education system, its formation based on modern requirements and innovative approaches are the main directions of the article.*

Keywords: *education, illustrative, problem-based, programmed, dogmatic teaching, program, programmatic education.*

Аннотация. *В статье анализируются различные типы и формы эффективной организации образовательного процесса. Развитие системы образования, её формирование на основе современных требований и инновационных подходов являются основными направлениями исследования.*

Ключевые слова: *образование, иллюстративное, проблемное, программированное, догматическое обучение, программа, программное обучение.*

Kirish. Bugungi kunda insoniyatning rivojlanishida pedagogik faoliyatning o'рни va roliga bo'lgan e'tibor har qachongidan ham ortgan. Bugun dunyoning turlicha davlatlarida ushbu muammoni tadqiq etishga bo'lgan izlanishlar doimiy ravishda davom etmoqda. Barcha sohalarda natijadorlik asosiy mezonga aylanmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti asarlarida ham bunga alohida urg'u berilishi



muammolarni hal etishda realistik nazarning ortishidan dalolat bermoqda. “Natijadorlik hammamiz uchun bosh talab, asosiy mezonga aylanmoqda”¹— SH.M.Mirziyoyev.

Venetsiyalik sayyoh Marko Poloning “Nur sharqdan taraladi” degan gapi ham bejizga aytilmagan. Tarixdan ma’lumki, buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino 4 yoshida Qur’onni to’la yod olgan. Bugungi kunda Qur’oni karimdan keyingi muborak kitob deya tan olingan “Sahihi Buxoriy”ni tuzgan allomamiz Imom Buxoriy 11 yoshida ustozi ad-Doxiliyning ilmidagi xatolikni tuzatgan. Ulug’ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy 6 yoshida she’rlar yoza boshlagan va Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini yoddan bilgan. Hassos shoir va shoh bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur esa 12 yoshida taxtga o’tirgan. Yurtimizda ana shunday buyuk ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalash dunyoga yurtimiz nomini tanitish uchun pedagoglarning o’ri beqiyosdir. O’z navbatida barkamol avlodni tarbiyalashda ta’lim va tarbiyaning o’rni beqiyos. Ta’lim inson hayotining ajralmas qismi bo’lib, uning rivojlanishi va samaradorligijamiatning taraqqiyotiga bevosita bog’liq. Ta’lim tizimini takomillashtirish va uni zamon talablariga moslashtirish muhim vazifalardan biridir. Bugungi kunda turli ta’lim shakllari va turlari mavjud bo’lib, ular axborot texnologiyalari, innovatsion pedagogik usullar va xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda rivojlanmoqda.

Didaktik g’oyalar jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangi g’oyalar bilan boyib, takomillashib boraveradi. Shu sababli ham ta’lim turlari o’quv jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvlar asosida shakllantiriladi.

Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

- arxaik;
- Qadimgi (Shumer, Misr, Xitoyda – eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasidan



- Avestit (baqtrya, Sug‘diyona, Xorazmda – eramizdan avvalgi VII–VI asrlar);
- Yunon (ellins, rim-yunon, Rim– eramizdan avvalgi V–I asrlar);
- O‘rta asr (dogmatik, sxolastik V–XVI asrlar);
- Ta‘limning yangi turlari (tushuntirish, tushuntirishli-ko‘rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o‘qitish, muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion, INTERNET tarmog‘idan foydalanib o‘qitish va shu kabilar);²

"Illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan" ta'lim turlari o‘qitish usullarini tasvirlaydi, bunda illyustrativ ta'lim vizual yordamlar bilan, muammoli ta'lim muammolarni hal qilish orqali, dasturlashtirilgan ta'lim esa oldindan belgilangan tartibda o‘rgatishga qaratilgan. Ushbu turlar ta'limni tashkil etishning xilma-xil usullari va vositalarini o‘z ichiga oladi.

Illyustrativ ta'lim: Ta'lim jarayonida vizual yordamlar (rasmlar, sxemalar, jadvallar) dan foydalanishga asoslanadi.

Muammoli ta'lim: O‘quvchilarga muammolar berilib, ularni yechish orqali bilim egallashiga yo‘naltirilgan.

Dasturlashtirilgan ta'lim: O‘quv materialini oldindan tuzilgan dastur yoki sxema asosida bosqichma-bosqich o‘rganishni nazarda tutadi.

Pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII–VI asrlarda Markaziy Osiyo hududida zardushtiylik dini shakllana boshlagan davrda paydo bo‘lgan. Muntazam o‘qitishning dastlabki shakli qadimgi yunon faylasufi Suqrot (eramizdan avvalgi 469–399-yillar) va uning shogirdlari tomonidan qo‘llangan yordamchi savollar orqali bilimga ega bo‘lish usuli — **dialogik metod** sifatida namoyon bo‘lgan.

Dogmatik o‘qitish — jamoa asosida idrok etish faoliyatining dastlabki turi bo‘lib, u o‘rta asrlarda keng tarqalgan. O‘sha davrda G‘arbiy Yevropada ta'lim jarayonida **lotin tili**, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa **arab tili** yetakchi o‘rin tutgan. Shu davrda shakllangan **musulmon pedagogik konsepsiyasi** esa yuksak

² J.Hasanboyev, X.A.To‘raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O‘.Usmanov. Pedagogika. Toshkent, 2011.



ma'naviyat, intellektual yondashuv va chuqur mazmunga ega bo'lganligi bilan ajralib turgan.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik tizim insoniyat tarixining eng qadimgi davrlaridayoq shakllana boshlagan. Zardushtiylik davridan boshlab ta'lim-tarbiya jarayonlari diniy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan. Qadimgi Yunonistonda Suqrot va uning shogirdlari tomonidan qo'llangan savol-javob (dialogik) metodining paydo bo'lishi o'qitish jarayonida mustaqil fikrlash va mantiqiy xulosalarga kelishning dastlabki namunasi bo'ldi. O'rta asrlarda esa dogmatik o'qitish usuli keng tarqalib, G'arbda lotin, Sharqda esa arab tili ilmfanning asosiy tili sifatida xizmat qildi. Shu tariqa, musulmon pedagogik konsepsiyasi ta'limga ma'naviylik, aql-zakovat va tafakkur yuksakligini olib kirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasidan
2. J.Hasanboyev, X.A.To'raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O'.Usmanov. Pedagogika. Toshkent, 2011
3. A.Sohibov. Umumiy pedagogika. Qarshi, 2023.